

O'QITUVCHILARNING ILMIY TADQIQOTCHILIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nurmatova Shoxyora Ilhomjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi Tel: +998
88205 8333

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanilib, mahalliy va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. Natijalar o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar – action research, lesson study, raqamli platformalardan foydalanish va mentorlik tizimi samarali ekanligini ko'rsatdi. Xulosada ushbu yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ilmiy tadqiqot, zamonaviy yondashuv, action research, lesson study, raqamli platforma, pedagogik faoliyat

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Нурматова Шохиёра Ильхомжон кызы

Андижанский государственный педагогический Институт Кафедра
методики начального образования Преподаватель: Тел.: +998 88 205 83 33

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития исследовательской компетентности учителей. В исследовании использованы теоретические и эмпирические методы, проведён сравнительный анализ отечественного и зарубежного опыта. Результаты показали эффективность современных подходов – action research, lesson study, использование цифровых платформ и системы наставничества. В заключении обоснована значимость данных подходов для повышения качества образования.

Ключевые слова: учитель, научное исследование, современные подходы, action research, lesson study, цифровые платформы, педагогическая деятельность

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF TEACHERS' RESEARCH COMPETENCE

Nurmatova Shokhiyora Ilhomjon qizi

Andijan State Pedagogical Institute Department of Primary Education Methodology Lecturer: Tel:
+998 88 205 83 33

Abstract: *This article explores the issue of developing teachers' research competence. The study employed both theoretical and empirical methods, including a comparative analysis of local and international experiences. The results indicate that modern approaches such as action research, lesson study, the use of digital platforms, and mentoring systems are effective in enhancing teachers' research activities. The conclusion highlights the importance of these approaches in improving the quality of education.*

Keywords: *teacher, research, modern approaches, action research, lesson study, digital platforms, pedagogical practice*

Hozirgi globalashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim sohasida pedagogik faoliyatning yangi qirralarini ochish va o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki ilmiy izlanish olib boruvchi, o'z pedagogik faoliyatini tahlil qiluvchi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqib, ta'lim amaliyotiga tatbiq etuvchi ijodkor sifatida shakllanishi talab etilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni belgilash, ularning afzalliklari va samaradorligini o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan muhimdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston – 2030 strategiyasi¹ hamda ta'lim sifatini baholashning xalqaro talablari o'qituvchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularning ilmiy izlanishlarini rag'batlantirish va ularning natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishni asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rsatib bermoqda.

Shuningdek, bugungi kunda xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan action research, lesson study, reflective practice kabi metodlar ham o'qituvchining tadqiqotchilik faoliyatini kuchaytirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy yondashuvlarning nazariy asoslari, ularning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati hamda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari keng tahlil qilinadi.

O'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va ta'lim tizimida keng ko'lamda o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Xususan, xalqaro miqyosda ushbu masalaga oid ilmiy qarashlar ko'plab tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, J. Creswell (2018) o'zining "Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research"² nomli asarida ilmiy tadqiqot metodologiyasini chuqur tahlil qilib, o'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda zamonaviy metodologik yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, M. Fullan (2020) tomonidan ilgari surilgan ta'lim islohotlari konsepsiyalarida ham o'qituvchining ilmiy-innovatsion salohiyatini rivojlantirish ta'lim tizimining barqarorligida muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston ilmiy maktabida ham o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

¹ O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent, 2023

² Creswell, J. W. (2018). *Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research*. Pearson Education.

Jumladan, Qodirova M. (2021) "Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar" ³ nomli tadqiqotida o'qituvchilarning ilmiy-ijodiy yondashuvi o'quvchilarda ham mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Abdullayeva G. (2019) tomonidan olib borilgan izlanishlarda o'qituvchilarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishda malaka oshirish kurslari va ilmiy loyihalarda ishtirok etish samaradorligi yoritilgan.

Bundan tashqari, UNESCO (2022) va OECD (2021) tomonidan chop etilgan xalqaro hisobotlarda ham o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatini kuchaytirish zamonaviy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qayd etiladi. Bu yondashuvlar milliy ta'lim tizimida ham o'z aksini topib, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) va "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish" bo'yicha qabul qilingan hukumat qarorlarida (2021) o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari belgilab berilgan.

Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Hattie J. (2015) o'qituvchilarning ilmiy izlanishlari natijalari ta'lim sifatiga qanday ta'sir qilishini empirik tadqiqotlar orqali asoslagan. Shuningdek, Burns T. va Shadoian-Gersing V. (OECD, 2010) o'qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalari ta'lim siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchiligini rivojlantirish masalasi milliy va xalqaro darajada dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, mazkur mavzu doirasida olib boriladigan izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etib, ta'lim sifatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishning turli metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo nazariy tahlil asosida o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy manbalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va metodik qo'llanmalar o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlar Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi ilg'or ta'lim tizimlari bilan solishtirildi. Empirik tadqiqot doirasida so'rovnoma, suhbat va intervyu metodlari qo'llanib, Andijon, Toshkent va Samarqand viloyatlarida faoliyat yuritayotgan 250 nafar umumta'lim maktabi o'qituvchilarining fikrlari o'rganildi. Shuningdek, 40 nafar pedagog bilan amaliy eksperiment o'tkazilib, ularni kichik tadqiqot loyihalariga jalb etish orqali ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabati va ishtiroki kuzatildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik metodlar, sifatli tahlil usullari, kontent-analizdan foydalanildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning aksariyati ilmiy tadqiqot olib borishga qiziqsa-da, zaruriy metodologik bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi ularning faoliyatini cheklab qo'yadi. Natijalarga ko'ra, so'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilarning 62 foizi ilmiy maqola yozish tajribasiga ega emas, 48 foizi ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarida qatnashmagan, biroq 87 foizi ilmiy izlanishlarni o'z pedagogik faoliyatida foydali deb hisoblaydi. Eksperiment natijalari

³ Qodirova, M. (2021). *Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.

esa kichik tadqiqot loyihalariga jalb qilingan o'qituvchilarning 73 foizida dars jarayonini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanganini, 65 foizida yangi metodlarni sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini o'lchash tajribasi shakllanganini ko'rsatdi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasini sezilarli darajada oshirgan. Masalan, ilmiy maqolalar uchun Google Scholar, Scopus, ResearchGate kabi platformalardan foydalanish o'qituvchilarni ilmiy hamjamiyat bilan bog'lashda samarali bo'ldi. Lesson study metodini qo'llagan o'qituvchilar esa o'zaro hamkorlikda dars tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, pedagogik muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechim ishlab chiqish imkoniga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning bevosita ta'sirini ochib berdi. Bugungi kunda ilmiy izlanishlar samaradorligini ta'minlash uchun bir qator muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur. Avvalo, ilmiy tadqiqotchilikni o'qituvchining kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qarash zarur. An'anaviy yondashuvlarda o'qituvchi ko'proq metodik qo'llanmalar va tayyor dars ishlanmalariga tayanadi, biroq zamonaviy yondashuvlarda o'qituvchi mustaqil izlanish olib boradi, dars jarayonini tahlil qiladi, yangicha g'oyalar ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, action research metodini keng qo'llash o'qituvchilarda ilmiy refleksiya, ya'ni o'z faoliyatini ilmiy asosda baholash va uni takomillashtirish malakasini kuchaytiradi. Finlyandiya ta'lim tizimida o'qituvchilar o'z darslarini ilmiy tahlil qilish orqali yangi metodlarni yaratishga hissa qo'shsalar, Yaponiya ta'lim tizimida lesson study orqali o'qituvchilar bir-birining tajribasini o'rganish va uni ilmiy asosda baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekistonda ham bu yondashuvlarni keng joriy etish, o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish, ularga zarur sharoit yaratish ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, masofaviy o'quv platformalari va onlayn konferensiyalar o'qituvchilarning ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotchilikka bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish uchun grantlar, tanlovlar va ilmiy loyihalarni kengaytirish lozim. Natijalardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarda ilmiy izlanishga qiziqish mavjud, biroq zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, zamonaviy yondashuvlar – action research, lesson study, reflective practice, raqamli platformalardan foydalanish, mentorlik tizimi va kichik ilmiy loyihalar – o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etishda o'zini oqladi. Uchinchidan, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va mahalliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish o'qituvchilarning ilmiy izlanishlarini rag'batlantirishda ijobiy natija beradi.

To'rtinchidan, ilmiy tadqiqotchilikka qiziqish bildirmagan o'qituvchilar uchun ham zaruriy sharoit va rag'bat mexanizmlari yaratilsa, ular ham bosqichma-bosqich izlanishga jalb etilishi mumkin.

Shu sababli o'qituvchilarning ilmiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish, muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish va raqamli ilmiy hamjamiyatlarga keng jalb etish zarur.

Kelgusida ushbu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish orqali nafaqat o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, balki ta'lim sifatining umumiy darajasi ham sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent, 2023
3. Creswell, J. W. (2018). Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. Pearson Education.
4. Fullan, M. (2020). The New Meaning of Educational Change (5th ed.). Teachers College Press.
5. Qodirova, M. (2021). Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Abdullayeva, G. (2019). O'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarining ahamiyati. O'zbekiston pedagogika jurnali, 2(3), 45–52.
7. UNESCO. (2022). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing.
8. OECD. (2021). Teachers and Leaders in Education 2030. Paris: OECD Publishing.
9. Hattie, J. (2015). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
10. Burns, T., & Shadoian-Gersing, V. (2010). Educating Teachers for Diversity: Meeting the Challenge. OECD Publishing.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror. Toshkent.